

LINVOKULTUROLOGIK IBORALAR VA ULARNING SEMANTIK MA’NOLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653664>

Urokov Sherbek

SamDCHTI Sharq tillar fakulteti, Uzoq sharq tillar kafedrası Assistant-o‘qituvchisi

Isayeva Mayramkul Turgunbekovna

Qirg‘iziston davlat universiteti, Yaponshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada iboralar, ularning semantik ma’nolari haqida fikr yuritilgan. Iboralarning qator ekvivalent tarjimalari jadval asosida berilgan bo‘lib unda o‘zbek tilidagi tarjimasini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda lingvokulturologik iboralarning sinonimiyasi, anotonimiyasi haqida ham to‘xtalib, misollar orqali asoslab o‘tilgan. Farzeologizmlar ayniqsa yapon tilida hali tadqiqot ishlari ko‘p olib borilmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan frazeologizmlar borasida ilmiy tadqiqot olib borgan ilmiy tadqiqotchilar haqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *linvokulturologiya, semantik ma’no, frazeologik birlik, frazeologik ma’no, ekvivalent tarjima.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются словосочетания и их смысловое значение. Ряд эквивалентных переводов словосочетаний приведен в таблице, которую можно увидеть в узбекском переводе. Также обсуждаются синонимы и антонимы лингвокультурных выражений и приводятся примеры. Фармакология, особенно на японском языке, является одной из наименее изученных тем. Эта статья также посвящена исследователям, занимавшимся исследованиями фразеологии.

Ключевые слова: *лингвокультурология, семантическое значение, фразеологизм, фразеологическое значение, эквивалентный перевод.*

ABSTRACT

This article discusses phrases and their semantic meanings. A number of equivalent translations of the phrases are given in the table, which can be seen in the Uzbek translation. It also discusses the synonyms and antonyms of lingculturology expressions and provides examples. Pharmacology, especially in Japanese, is one of

the less studied topics. This article is also about researchers who have done research on phraseology.

Keywords: *linoculturology, semantic meaning, phraseological unit, phraseological meaning, equivalent translation.*

KIRISH

Tilshunoslikning bir bo‘limini tashkil etuvchi frazeologiya o‘zbek va yapon tillarida ham uchraydi. Mazkur mavzu orqali lingvokulturologik iboralar va ularning semantik

ma‘nosi, tarjimalari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Tilning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi iboralar o‘zbek va yapon tillarida judako‘p jihatdan o‘xshab ketadi. Bunga asosiy sabab garchi o‘zbek va yapon tillari Oltoy tillar oilasiga kirib, turkum jihatdan boshqa turkumni tashkil etsada o‘zbek tilining fonetika, mustaqil so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish), yordamchi so‘zlar, gap bo‘laklari, gapning tuzilish jihatidan bir –biriga juda o‘xshab ketadi. Shuning uchun ham aynan o‘zbek tili talabari uchun yapon tilini o‘rganish deyarli qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Nafaqat o‘zbek tilida balki yapon tilida ham frazeologik birlikalardan foydalanish kuchli hayotiy tajribaga ega ekanligidan hamda o‘z yurtining ona tilidan qanchalik xabardor ekanligidan darak beradi.

O‘zbek tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi hamda lug‘at tarkibini tashkil etuvchi vositalardan biri bu frazeologizmlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilimizda bu vositalarning bir nechalab ko‘rinishlarga ega bo‘lishi, sinonimik, antonimik, omonimlik kabi rang-barang xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit ma‘no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. Aytish mumkinki, iboralar nutq jarayonida tayyor ya‘ni o‘zgarmagan yaxlit holda uchraydi va shu holicha ishlatiladi. Shuning uchun ham ikki yoki undan ko‘p so‘zning, yaxlit bo‘linmagan holda bo‘lsada ko‘chma ma‘no anglatishiga frazeologik birlikma deyiladi. [11]

Ibora bitta so‘zdan emas aksariyat hollarda ikkita mustaqil so‘zdan tarkib topadi. Shunga ko‘ra iboraning ifoda plani deb so‘zlar (leksemalar) shular tarkibidagi til birliklari nazarda tutiladi.

Shunga ko‘ra aytish mumkin, yapon tilida ham iboralar kamida ikki komponentli bo‘lib yaxlit ravishda ishlatiladi. Shu bilan birga lingvokulturologik

aspektlarni o‘zida mujassam etadi. Lingvokulturologik ahamiyatga molik frazeologizmlar yapon tilida 慣用句-かんようく—kannyouku deb nomlanadi.

Boshlang‘ich yapon tilini o‘rganuvchilarga boshidan o‘rgatiladigan asosiy aspektlardan biri ham aynan mana shu lingvokulturologik frazeologizmlar ilk darslardan uchraydi. Masalan: どうぞよろしくおねがいます。[6]

Birgina mana shu *ibora tanishganimdan mamnunman, xursandman* kabi tarjima kitoblarida berilib ilk madaniyat aspekti hisoblangan xushmumomalalik iborasi o‘rgatiladi.

Bundan tashqari mazkur mavzuga doir bir qancha tadqiqot ishlarini ko‘rib o‘tsak. O‘zbek tilidagi frazeologik materiallarni yig‘ish,ularni ma‘lum yo‘nalishga solish ishi juda qadimdan boshlangan bo‘lib,ular bizgacha yetib kelgan turkcha frazeologik lug‘at qatorida 1480-yilda no‘malum muallif tomonidan tuzilgan “*Otalar so‘zi*”kitobini kiritish mumkin.O‘zbek tilini boy til ekanligini shu kungacha tuzilgan frazeologik va boshqa lug‘atlardan ham bilsa bo‘ladi. Bu borada Shavkat Rahmatullayevning “Ozbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”ni shuningdek Maqsuda Sodiqovanning “*Краткий узбекско-русский словарь*”ini sanab o‘tish mumkin.Bundan tashqari, 1994-yilda Muxtor Umurxo‘jayev va Qambarali Nazarovlar tomonidan tuzilgan “*yaponcha-ruscha –o‘zbekcha frazeologik lug‘at*”birinchimarta chop etilgan uch tilli frazeologik lug‘atlardan biridir.

Vinfrid Ulrix va Rut Klappenbaxning fikriga ko‘ra yapon frazeologiyasi sohasida hamda bu borada olib borilgan tadqiqodlarning tasdiqlashicha frazeologiya leksikologiyaning bir qismi leksikografiya aspektida ham o‘rganiladi.Nishikawa Sukenobu,Shiba Kokan ham yapon frazeologiyasi sohasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. [12]

Rus tadqiqodchilaridan Zavyalova N.A, Molchanova K. Ye kabilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, yapon tilshunosligida Shiraishi Daiji,Miyaji Yutaka, tomonidan o‘rganganligi qayd etilgan.Masalan Zavyalova yapon kundalik hayotida uchraydigan frazeologik birliklarni tadqiq qilib otli va fe‘lli frazeologik birliklarni ko‘rsatib,yapon xalqining har kungi kundalik hayotida frazeologiya aksini topgan.Yaponlar “dunyo narsalarini sevish”konsepsiyasi o‘rganib chiqdi.

Molchanova frazeologiya strukturasi,tarixi,tabiati haqida batafsil o‘rganib chiqqan.Yaponiya tarixidagi Nara davri (710-794)dagi adabiyotlarda bizga ma‘lum bo‘lgan “*Kodziki*” (712) va “*Nihon shyoki*” (720) asarlarida frazeologik birliklardan ajoyib tarzda foydalanilgan.Bu tarixiy va birinchi bo‘lib hisoblangan yozma yodgorliklar bir tomondan qadimgi Nara davridan xabar bersa,bir tomondan

davrda qo‘llanilgan frazeologik birliklar, Nara qirolligi, qadimda yaponlarning yashash tarzidan xabar beradi.

Til birliklari orasida semantik mikrosistemalardan biri bo‘lib, iboralar orasida hamanchani tashkil etadi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular aynan bir ma‘noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma‘nolilikni teng ma‘noli deb bilish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma‘no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma‘no qirrasiga ega bo‘ladi. Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo‘ladi, shulardan biri ma‘no qirrasiga farq bo‘lishi mumkin.

Masalan: “*Burni osmonda*“ *tumshug‘i baland* Bu iboralar bir biriga sinonim hisoblanadi. [11]

Ko‘zi ma‘noli iborasigayuzi *ma‘noli* o‘zaro bir iboraning variantlariga teng, ikkinchi leksik komponentlari esa o‘zaro sinonim. Yapon tilida esa xuddi shu iboralar quyidagicha bo‘ladi. *ko‘zi ma‘noli* *Yuzi ma‘noli* va hamma uchun sevimli yoqimli ma‘nolarini anglatadi.

Sinonimiya-ma‘no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma‘nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnasha, iboradan emas, balki, konkret frazeologik ma‘nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma‘no o‘z ichiga sinonimga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi mumkin. Masalan: monosemantik *tan olmoq* iborasiga polisemantik (uch ma‘noli) *bo‘yniga olmoq* iborasi birinchi ma‘nosida sinonim bo‘ladi. Bu uch ma‘noli iboraning ikkinchi ma‘nosiga sinonim yo‘q, ammo uchinchi ma‘nosiga *zimmasiga olmoq* iborasi birinchi ma‘nosida sinonim (keyingi ibora uch ma‘noli bo‘lib, qolgan ikki ma‘nosida sinonim yo‘q).

Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo‘lib, iboralarda ham so‘zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lug‘aviy ma‘nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiyada bir iboraning ma‘nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi. Polisemiyada bir iboraning ma‘nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa- boshqa so‘zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson:

Masalan: *Oyog‘i og‘ir* iborasi iborasiga *to‘g‘ri* keladi.

Hamma yangi kelgan kelinni *oyog‘i yeng‘il* keldi deb aytayapdi.

Birinchi iborada biron falokat olib kelish, bexosiyatlikni bildirsa, ikkinchi iborada esa yaxshilik, yorug‘lik, baraka olib keluvchi kishini anglatadi.

Yana bir misolni olib qarasa “qo‘lini tortmoq” iborasiga antonim sifatida “qo‘lini cho‘zmoq” iborasi to‘g‘ri keladi.

- 1) Biror ishdan o‘zini olib qochish
- 2) Biror kimga o‘z yordamini ayamalikni bildiradi.

Bu o‘qituvchi har doim o‘quvchilaridan o‘z yordamini ayamaydi.

Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so‘z –komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so‘z-komponentlar o‘zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar ayni bir so‘zning o‘zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so‘zlar:

Yuragi keng va yuragi tor.

Boshqa bir misol: *ko‘ngli joyiga tushdi va turagiga*

G‘ulg‘ula tushdi.

Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchi ayni bir so‘z, birinchisi o‘zaro sinonim, ikkinchisi esa o‘zaro ma‘no munosabati hosil qilmaydi. [10]

NATIJALAR

Ko‘rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so‘z-komponentlar bu iboralarning o‘zaro antonim bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi; ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim so‘z –komponentlar qatnashmaydi. Har bir tilda badiiy nutqning hissiy ta‘sirchanligini va obrazlilikini shunday barqaror so‘z vabirikmalar uchray turadiki, ularning paydo bo‘lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqelarga nisbatan qarashlari munosabatlar bilan mustahkam bog‘liqdir. Odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o‘z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta‘sirchan hayajonli tarzida ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqea-hodisa va tabiat manzaralari ko‘pincha mubolag‘ali tarzda kitobxoniga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazlilik oshadi, yuqori ta‘sirchanlik va hissiy tuyg‘u yuzaga keladi. Demak, obrazlilik, ta‘sirchanlik, hissiy tuyg‘uni yuzaga iboraning o‘rni borligini alohida ta‘kidlash lozimdir. Shunday ekan o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan iboralarning muqobil yoki aynan bir xil bo‘lgan variant yapon tilida ham mavjuddir hamda yapon tilidan o‘zbek tilida ham xuddi shundaydir. Fikrimiz isboti sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Yapon tilida ibora	O‘qilishi	Tarjima ekvivalenti
--------------------	-----------	---------------------

つばをつける	tsuba o tsukeru	og'zini suvi kelmoq
うかめがお	ukame gao	qovog'i osilgangan
甘いがお	amai gao	ochiq chehrali
そらみみ	sora mimi	hayol qilmoq, qulog'i osmonda
みみをおどろかす	mimi o odorokasu	lol qoldirmoq, hayron qoldirmoq
めをおどろかす	me o odorokasu	lol qoldirmoq ,hayron qoldirmoq
じもく	ji moku	ko'z quloq bo'lmoq
のうがない	nou ga nai	miyasi aynigan, miyasi yo'q
みみがない	mimiga nai	ko'rishga ko'zi yo'q
みみをかたむける	mimi o katamukeru	quloq solmoq
口がまわらない	kuchiga mawaranai	tili aylanmaslik
くちなれし	kuchi nareshi	tili o'rganmoq(ovqat ma'nosida)
めをはしらせる	meo hashiraseru	ko'z yugurtirmoq
めがくらむ	megakuramu	boshi aylanmoq
かたをいれる	kata o ireru	yordam qo'lini cho'zmoq
ひたいがはなれやか	hitaiga hanareyaka	peshanasi yarqiragan
ひたからあせがでる	hitakaraase ga deru	peshana terisi to'kilmoq
首をつこむ	kubi o tsukomu	bo'ynini cho'zmoq
首をふる	kubi o furu	rad etmoq
くびをじしゅする	kubi o jishusuru	tan olmoq
くちにでかける	kuchini dekakeru	og'zidan chiqmoq
ごがにえる	go ga nieru	o'zidan ketmoq

Iboralar nutqning ta'sirchan hamda bo'yoqdor bolishini ta'minlaydi. Shu sababdan ham frazeologizmlarda uslubiy funksional xossalar leksik birliklarga qaraganda ancha keng. [4]

Hozirgi kunda xorijiy tillani o‘rgatish mamalakatimizda keng yo‘lga qoyilgan. O‘rganilayotgan tilni chuqur o‘zlashtirish uchun ma‘lum miqdorda so‘zlarni bilish hamda ularni nutqda qo‘llay olish yetarli emas. Og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri tushunish nutq ifodalagan obrazni joziba va ta‘sirchanligini o‘rganish shu bilan birgalikda ularni to‘g‘ri qo‘llay bilish juda muhimdir.

XULOSA

Til o‘rganish asnosida lingvokulturologik birliklardan biri bo‘lgan iboralarni o‘rgatish mamlakatimizning ayrim litsey, institut va universitetlarda keng yo‘lga qo‘yilgan. Chunki chet tilini chuqur o‘zlashtirish uchun ma‘lum miqdorda so‘zlarni bilish va ularni nutqda qo‘llay olish yetarli emas. Og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri tushunish, nutq ifodalagan obrazni to‘g‘ri qo‘llay bilish juda muhimdir. Frazeologik birikmalarni bilmaslik har qanday nutq jarayonida asl maqsadini tushunmaslikka olib keladi. Yapon tili o‘ziga xos tillardan bo‘lib, iyerogliflar- kanji 漢字 uchraydi. Ieroglif kamida ikkita o‘qilishiga ega. Shuning uchun ham talaba-o‘quvchilarga yapon tilini o‘rgatishda yapon tilida qo‘llaniladigan iboralar (frazeologiya) mohiyatini to‘la tushuntirish va o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Demak yuqorida biz iboralarning o‘zaro ko‘p ma‘noli iboralar, sinonimlar iboralar, antonym iboralarni o‘zbek va yapon tillarida misollar tariqasida ko‘rib chiqdik. Shunday ekan, tilshunoslikka xos bo‘lgan ko‘p ma‘nolilik, sinonimlik, antonimlik hodisasi o‘zbek va yapon tillarida ham bir xil hamda bir xil shakl va mazmunga ega. Lekin farqli jihati shundaki, yapon tilidagi iboralarda paradigmatic formalar o‘zbek tilinikidan ancha farq qiladi. Masalan ”:ko‘nglimni uzdim” iborasi zamonda tuslasak: ko‘nglimni uzdim, ko‘nglingni uzding, ko‘nglini uzdi iboralaridema o‘zbek tilida uchta zamoni ko‘rsatuvchi maxsus tuslovchi qo‘shimchalar mavjud. Lekin yapon tilida esa hozirgi zamonda ます o‘tgan zamonda ました、kelasi zamonda esa たい hamma shaxslar uchun uchala zamonda ham bir xil qo‘llaniladi. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, yapon xalqining har kungi kundalik hayotida frazeologiya aksini topgan.

Demak iboralar borasidagi tadqiqotlar hali yetarlicha emas, shuning uchun ilmiy tadqiqotlar hali davom etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Алпатов В.М. Япония. Язык и общество, М., 1988. 212 б.
2. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961. – 136 с.

3. Киеда М. Грамматика японского языка. -М.: Едиториал УРСС, 2004. - 240 с
4. ことわざ辞典 小柳 昇 (Oyanagi Noboru). ニューアプローチ II (New approach II). – Tokio:こぶも研究者 (kobu mokenkyuusha), 2002. - 268 b.
5. ミニことわざ辞典— 研究者 (kobu mokenkyuusha). 1993.-152 b.
6. みんなの日本語 II. Tarjima va gramatik tahlil Toshkent: 2007. 186 b.
7. Sherov. S.X. Yaponcha-o‘zbekcha-ruscha lug‘at. T. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. 2004. 250 b.
8. Sulaymonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma), Namangan . 2008. –120 b.
9. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
10. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.
11. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
12. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
13. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
14. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
15. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
16. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.

17. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
18. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
19. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
20. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
21. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
22. Tuhtasinov, Ihom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
23. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
24. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
25. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
26. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг хозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
27. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг таъқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
28. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
29. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
30. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).

31. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
32. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
33. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
34. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
35. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
36. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
37. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
38. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.

Jurnallar

39. Курбонова, Г. «Узгирининг буюк ханшайманинг «Тинчлик» «Тинчлик» «Тинчлик» —» 『文学研究論集』第 49 号（明治大学大学院文学研究科）、pp.145-163、2018 年 9 月。

Vebsayt

40. <http://library.navoiyuni.uz/files/r.%20sayfullayeva%20hozirgi%20o%60zbek%20adabiy%20tili.pdf>
41. [elib.buxdu.uz](http://elib.buxdu.uz/index.php/dasturlar/itemlist/category/36-multimedia) (<http://elib.buxdu.uz/index.php/dasturlar/itemlist/category/36-multimedia>) Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning ifodalanish usullariga doir
42. www.hozir.org/ozb-e-kist-o-n-r-e-spublikasi-o-liy-...orta-ma.html?page=12